

FUQAROLIK JAMIYATINING JARAYON SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI

*Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna, Urganch davlat universiteti
o'qituvchisi, O'zMU mustaqil tadqiqotchisi*

PROPERTIES OF CIVIL SOCIETY AS A PROCESS

*Kurbanbayeva Munavvara Kozybayevna, teacher at Urgench State
University, independent researcher at the National
University of Uzbekistan*

СВОЙСТВА ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА КАК ПРОЦЕСС

*Курбанбаева Мунавара Козыбаевна, преподаватель Ургенчского
государственного университета, независимый исследователь
Национального университета Узбекистана*

Annotatsiya: Maqolada fuqarolik jamiyatiga yangi nuqtayi nazardan yondashiladi. Fuqarolik jamiyati haqidagi nazariyalar an'anaviy tarzda uni muayyan tashkilotlar va institutlar yig'indisi sifatida tushuntirib keladi. Biroq bu yondashuv jamiyatdagi aniq fuqarolik faoliyati, ijtimoiy mas'uliyat va jamoaviy ongning shakllanish jarayonini to'liq qamrab olmaydi. Shu boisdan, ushbu tadqiqotda fuqarolik jamiyati nafaqat maydon, balki jarayon sifatida ham izohlanadi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, ijtimoiy ong, jamoaviy maqsadlar, jarayon, model, faol fuqarolik, inson kapitali, struktura.

Annotation: The article approaches civil society from a new perspective. Theories about civil society traditionally explain it as a set of specific organizations and institutions. However, this approach cannot fully cover the process of formation of specific civic activity, social responsibility and collective consciousness in society. Therefore, in this study, civil society is interpreted not only as a field, but also as a process.

Keywords: civil society, social consciousness, collective goals, process, model, active citizenship, human capital, structure.

Аннотация: В статье гражданское общество рассматривается с новой точки зрения. Традиционные теории гражданского общества объясняют его как совокупность конкретных организаций и институтов. Однако такой подход не может в полной мере охватить процесс специфической гражданской деятельности, социальной ответственности и формирования коллективного сознания в обществе. Поэтому в данном исследовании гражданское общество интерпретируется не только как поле, но и как процесс.

Ключевые слова: гражданское общество, социальное сознание, коллективные цели, процесс, модель, активное гражданство, человеческий капитал, структура.

KIRISH. Fuqarolik jamiyati — bu faqatgina aylanishi va jamoaviy ongda o'z hissasini ko'rsata muayyan tashkilotlar va tuzilmalarning yig'indisi olishi jarayonidir. Bu jarayon fuqarolarning o'zini emas, balki shaxsning o'zini faol subyekt sifatida idora qilish qobiliyati, huquqiy ongi va faol anglashi, ijtimoiy jarayonlarda mas'ul ishtirokchiga fuqarolik pozitsiyasi bilan belgilanadi.



<https://orcid.org/0009-0002-6202-2064>

e-mail:
tamaddunnuri1@g
mail.com



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tadqiqotimizda Fuqarolik jamiyati, uning institutlari tushunchasi va mazmun-mohiyati, fuqarolik jamiyatining siyosiy g'oyaviy asoslarining nazariy jihatlarini, fuqarolik jamiyatining g'oyaviy asoslariga oid jahondagi ilmiy maktablar to'g'risidagi an'anaviy ilmiy qarashlarni ko'rib chiqib, tahlil qilindi.

MUHOKAMA. Fuqarolik jamiyatini tahlil qilishda uning faqat tuzilmaviy jihatlarinigina emas, balki jarayon sifatidagi mohiyatini ham nazarda tutish zarur. Institutlar — bu inson ongidagi yuksak ma'naviy qadriyatlarning amaliy ifodasi, fuqarolik jamiyati esa insonning shaxsiy yetukligi va jamoaviy mas'uliyati asosida shakllanadigan tizimdir.

Fuqarolik jamiyati haqidagi nazariyalar an'anaviy tarzda uni muayyan tashkilotlar va institutlar yig'indisi sifatida tushuntirib keladi. Biroq bu yondashuv jamiyatdagi aniq fuqarolik faoliyati, ijtimoiy mas'uliyat va jamoaviy ongning shakllanish jarayonini to'liq qamrab ololmaydi. Shu boisdan, fuqarolik jamiyatini biz nafaqat maydon, balki jarayon sifatida ham izohlaymiz: Fuqarolik jamiyati — jamiyatdagi faol fuqarolarning, nodavlat tashkilotlarning, madaniyat va ma'rifat asosida birlashgan kuchlarining davlat siyosatiga ta'sir ko'rsata oladigan muvozanatli maydonidir. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati — bu faqatgina muayyan tashkilotlar va tuzilmalarning yig'indisi emas, balki shaxsning o'zini faol subyekt sifatida anglashi, ijtimoiy jarayonlarda mas'ul ishtirokchiga aylanishi va jamoaviy ongda o'z hissasini ko'rsata olishi jarayonidir. Bu jarayon fuqarolarning o'zini idora qilish qobiliyati, huquqiy ongi va faol fuqarolik pozitsiyasi bilan belgilanadi.

Fuqarolik jamiyatini maydon va jarayon sifatida o'rganish uning hali o'rganilmagan jihatlarini ochishga yordam beradi. Bu ikki yondashuv, nazariy jihatdan qaralganda, bir-birini inkor etmaydi. Birinchi yondashuv institutsional-siyosiy nuqtayi nazardan yondashadi: fuqarolik jamiyatini muayyan ijtimoiy kuchlar, nodavlat sektorlar va tashabbus markazlari maydoni sifatida ta'riflaydi. Ikkinchi yondashuv esa falsafiy-ijtimoiy va ontologik nuqtayi nazardan qarab, fuqarolik jamiyatini shaxsiy o'zgarishlar, ongli faollik va

jamiyatdagi subyektiv quvvatlarning uyg'onishi jarayoni sifatida talqin qiladi. Demak, fuqarolik jamiyati — ham maydon, ham jarayondir: bir tomondan, u institutlar va jamoat tashkilotlari orqali tashkiliy tuzilmaga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, fuqarolar ongining o'sishi va ijtimoiy subyekt sifatida shakllanishi jarayonida namoyon bo'ladi.

Shundan kelib chiqqan holda Fuqarolik jamiyati institutlariga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

Fuqarolik jamiyati institutlari — bu fuqarolarning o'z-o'zini idora qilish, ijtimoiy-siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, jamoat nazoratini amalga oshirish va umumiy manfaatlarni ifoda qilish qobiliyatini institutsional shaklda rivojlantiruvchi tashkilot va mexanizmlar majmuidir. Ular shaxsiy tashabbus, huquqiy ong, jamoaviy tafakkur va madaniy merosga suyangan holda, davlat hokimiyatidan mustaqil ravishda jamiyatda barqarorlik, adolat va faol fuqarolikni ta'minlashga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradilar. Bunday institutlar nafaqat jamiyatning tashqi ko'rinishini, balki ichki faoliyati va g'oyaviy-siyosiy tuzilishini ham shakllantiradi.

Fuqarolik jamiyati va uning institutlariga yangicha ta'rif berish, ularni faqat tuzilma emas, balki jarayon sifatida ham ko'ra olish, siyosiy fan va fuqarolik ongi taraqqiyoti uchun muhim qadam hisoblanadi. Bu ta'riflar inson subyekting ijtimoiy mas'uliyati, tashabbusi va siyosiy faolligini belgilashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ya'ni, Fuqarolik jamiyati murakkab va ko'p qatlamli tuzilmaga ega bo'lib, uni tashkil etuvchi asosiy elementlardan biri — bu fuqarolik jamiyati institutlaridir[2]. Mazkur institutlarga nisbatan turli ilmiy qarashlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati institutlarni fuqarolik jamiyatining tashkiliy-amaliy ko'rinishi sifatida talqin qiladi. Ammo bu yondashuv chegarali, bir yoqlamali tushunchalarga olib keladi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda fuqarolik jamiyati institutlariga nisbatan quyidagi ta'rifni va u asoslangan yangi ilmiy qarashlarni bayon qilamiz: Fuqarolik jamiyati institutlari — bu davlat tuzilmalari ta'siridan mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi, jamiyat a'zolarining ijtimoiy-huquqiy, madaniy-ma'naviy, iqtisodiy va axloqiy

manfaatlarini ifoda etuvchi, o'z-o'zini idora qilish, ijtimoiy tashabbusni amalga oshirish va jamoaviy ongni shakllantirish salohiyatiga ega ixtiyoriy tuzilmalar majmuasidir. Ular faqat muayyan funksiyalarni bajaruvchi tuzilmalar emas, balki fuqarolarning faol subyekti sifatida shakllanishiga, jamiyatda hokimiyatni muvozanatlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, hamkorlik, dialog va huquqiy ongni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy jarayonlar tizimidir [1].

Bu ta'rifda fuqarolik jamiyati institutlariga ikkilamchi funksiya sifatida emas, balki mustaqil, dinamik va subyektiv rolga ega tuzilma sifatida yondashiladi. Ular ichida nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari, mustaqil ta'lim va tadqiqot muassasalari, ijtimoiy harakatlar, jamoatchilik kengashlari, mahallalar, diniy va ma'naviy-axloqiy tashkilotlar, ekologik harakatlar va boshqalarni sanab o'tish mumkin.

NATIJALAR. Fuqarolik jamiyati institutlarining quyidagi xususiyat va funksiyalari ahamiyatga molik:

1. Jarayonlilik xususiyati: fuqarolik jamiyati institutlari faqat tuzilma emas, balki jarayon — ya'ni fuqarolarning o'z manfaatlarini ifoda qilish, umumiy ongni shakllantirish, tashabbus ko'rsatish va ta'sir o'tkazish kabi ijtimoiy harakatlarning barqaror tizimidir.
2. Inson kapitali va jamoaviy ongning markazda turishi: ushbu institutlarning muvaffaqiyati davlatdan mustaqilligiga emas, balki ularning inson kapitali, axloqiy salohiyati, targ'ibot-qonunchilik ta'siri va jamoaviy ma'naviyatni shakllantira olishiga bog'liqdir.
3. Muvozanat va nazorat funksiyasi: fuqarolik jamiyati institutlari faqat fuqarolarning manfaatlarini ifoda etish emas, balki hokimiyatni nazorat qilish, qarorlar qabul qilinishiga ta'sir etish va hokimiyatni jamiyatga hisobdorlikka majburlash mexanizmidir.
4. Ta'limiy va madaniy missiya: fuqarolik jamiyati institutlari aholi ongini uyg'otuvchi,

tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi, faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiruvchi ijtimoiy-ma'rifiy institutlardir.

5. Normativ-simvolik funksiya: mazkur institutlar qonun va huquq asosida faoliyat yuritish bilan bir qatorda, jamiyat uchun ramziy, ma'naviy va madaniy xususiyatga ham ega. Ular milliy qadriyatlar, an'analar va global tamaddun o'rtasidagi muloqot maydonini yaratadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining nafaqat tashkilotchilik maqomi, balki jamiyatdagi roli, ta'sir doirasi, fuqarolar ongidagi o'rni va salohiyati ham ulkandir. Ushbu yondashuv zamonaviy siyosiy-nazariy va ijtimoiy paradigmalarga mos keladi hamda fuqarolik jamiyatini chuqurroq anglash uchun ilmiy asos bo'la oladi[3].

XULOSA. Tahlillarga asoslanib, an'anaviy fuqarolik jamiyati tushunchasiga bizning yangicha yondashuvimiz quyidagicha: biz fuqarolik jamiyati institutlarini inson ongida shakllanadigan ma'naviy jarayonlar, ijtimoiy tashabbuslar va o'zini idora qilish madaniyati bilan chambarchas bog'langan holda qarash zarur deb hisoblaymiz. Unda fuqarolik jamiyatini faqatgina muayyan institutlar yig'indisi sifatida emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi: institutlar yuridik va tashkiliy shaklda mavjud bo'lishi mumkin, ammo ularni hayotbaxsh kuchga aylantiradigan omil — bu inson faoliyati, irodasi va jamoaviy maqsadlarga intilishidir. Shundan kelib chiqib, fuqarolik jamiyatini faqat struktura sifatida emas, balki jarayon sifatida ham talqin qilish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lokk J. Hukumat to'g'risida ikkinchi risola. — T.: Sharq, 2006. — B. 33–45.
2. Bobonazarov E. Fuqarolik jamiyati nazariyalari. — T.: Ijtimoiy fikr, 2012. — B. 24–28.
3. Marks K., Engels F. Tanlangan asarlar. — T.: O'zbekiston, 1998. — T. 1. — B. 55–63.
4. Xabermas Yu. Kommunikativ harakat nazariyasi. — M.: Nauka, 1995. — B. 77–85.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 fevraldagi PF–6166-son Farmoni.